

**UZBEKISTAN ACADEMY OF SCIENCES
INSTITUTE OF UZBEK LANGUAGE, LITERATURE AND FOLKLORE
UZBEKISTAN WRITERS' UNION
REPUBLICAN CENTER OF SPIRITUAL AND ENLIGHTENMENT
MINISTRY OF HIGHER AND SECONDARY SPECIAL EDUCATION**

Materials of the international scientific-educational conference

**“PROMOTION OF THE UZBEK LANGUAGE AND LITERATURE
IN THE WORLD: RESULTS AND OBJECTIVES”**

October 26, 2021

TASHKENT – 2021

Асадов А. Произведения, которые необходимо преподавать по мировой литературе в средних школах.....	393
Yarkinova B. Tarjimada etnopsixologik va psixestetik omillarning aks etishi	404
Fayzulloyev B. Tojikistondagi bugungi o'zbekcha tarjimalarga doir ayrim mulohazalar	409
Пулатов Н. Структура и состав «Иёри Дониш» и его отношение к «Калиле и Димне» и «Анвори Сухайли».....	416
Nazarova Sh. "Oyina" jurnalida "Milliy she'r" masalasi va uning bugungi talqinlari.....	430
Sultanova I. Azərbaycan-Türküstan münasibətlərinin yeni mədəni konteksti və aspektlərinin yaranmasında molla nəsrəddinçilərin rolu	435
Shoaliyeva N. Bedil ijodida adolat talqini	447
Keldiyorova N. Azim Suyun she'riyatida yurt madhi	459
Ishonxonova I. Umumta'lim maktablarida navoiy g'azallarining o'rganilishi	467
Dehqonova M. XX asrning 60-80-yillarida oybekshunoslik.....	472
Qarshiyev K. Jamol Kamol sakkizliklarida assotsiativ tafakkur tasviri	477
Xudoyqulova M. O'zbek tanqidchiligida bahs-maqolaning shakllanish manbalari	483
Zoyirova G. To'rtlik yaratish yo'lidagi izlanishlar (<i>Samandar Vohidov ijodi misolida</i>).....	488

TO'RTLİK YARATISH YO'LIDAGI IZLANISHLAR
(*Samandar Vohidov ijodi misolida*)

Go'zal Zoyirova *

Annotatsiya. Ushbu maqolada buxorolik iste'dodli shoir Samandar Vohidovning kichik she'riy shakllarda poetik fikr ifodalay olish mahorati va bu borada shoirning o'ziga xos uslubi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: poetik shakl, to'rtlik, turkumlilik, mahorat, tarse', tavze'.

Kichik hajmda original mazmun, tugal xulosa paydo qila olish va o'ziga xos tasvir uslubini yaratish ijodkordan katta mahorat talab qilishi tabiiy. "Ijoddagi eng kichik zarra ham badiiy mahoratga muhtojdir" [Umurov, 2001: 32]. Ijodkorning badiiy mahorati esa, avvalo, uning shaxsiy ijodiy tashabbuskorligiga ham bevosita bog'liqdir. Samandar Vohidov ijodiy merosidagi to'rtliklar ham ana shunday mahorat natijasida yuzaga kelgan. Samandar Vohidov to'rtlik she'riy shaklida ham barakali ijod qilib, kichik hajmda o'z falsafiy tafakkurini to'laligicha ifodalay olish mahoratini yana bir bor namoyon qilgan. U yaratgan to'rtlik she'riy shaklidagi she'rlarining o'ziga xosligi shundaki, muallif ularni mavzu va mazmun jihatiga ko'ra turkumlarga birlashtirganligidir. To'rtliklar istalgan mavzularda yozilganligi bilan, turkum she'rlar esa bir umumiy mavzu ostida ekanligi bilan alohidalik kasb etadi. Biroq Samandar Vohidovning "Dunyo darsxonadir" to'plamida uning bu borada o'ziga xos yondashganligiga guvoh bo'lamiz.

Kitobdagi to'rtliklar uchta: "Otamning o'gitlari", "Dunyo darsxonadir", "Sabrim kosasiga sig'magan dardlar" nomli turkumlarga birlashtiriladi. Ya'ni Samandar Vohidov ijodida to'rtlik poetik shakli va turkumlilik janri tushunchalari bir o'zanda suzadi. Ayni jihat ham shoir ijodidagi uslubiy o'ziga xosliklardan birini namoyon qilib turadi. Bu o'rinda to'rtlik poetik shakli va turkumlilik nazariy tushunchalarini o'rganish maqsadga muvofiqdir. Xususan,

* Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

"To'rtlik – jahon xalqlari she'riyatidagi eng mashhur, ko'p qo'llaniladigan she'riy shakl hisoblanadi. Aksariyat, aabb, abab, abba va sharq she'riyatida esa, aaba tarzidagi qofiyalanish tartibiga ega. Hijolari, vazni turlicha; ko'pincha to'qqiz, o'n bir bo'g'inli bo'ladi" [Kvyatkovskiy, 1966:338]. "Dunyo darsxonadir" to'plamiga kirgan turkum to'rtliklarning barchasi aaba tarzida qofiyalangan. To'rtlik haqida biroz kengroq mushohadani o'qiymiz: "To'rtlik – to'rt misradan iborat mustaqil she'riy asar. To'rtlikning tarixi juda qadimiy bo'lib, u dastlab folklordan paydo bo'lgan. O'zbek xalq qo'shiqlarining mustaqil to'rtliklar sifatida yaratilishi bunga yaqqol misol bo'la oladi. To'rtliklar ruboiydan o'zining shakliiy hamda mazmuniy jihatlar bilan farqlanadi. To'rtlikning mavzu doirasi keng bo'lib, ularda turli hayotiy voqealar aks ettirilishi mumkin... To'rtlikda ijodkorning biror hayotiy voqelik haqidagi taassurot va xulosalari lo'nda, poetik ifodalanadi" [Hotamov, 1983: 356-357]. Bundan ko'rinadiki, garchi ruboiydek o'ta qat'iy va murakkab qoidalariga asoslanmasa-da, to'rtlik she'riy shaklining ham o'ziga xos talab va tamoyillari mavjud. Adabiyotshunos olim Hotam Umurov to'rtlikni lirikaning kichik janrlari sifatida e'tirof etar ekan shunday deydi: "Ruboiy va tuyuq janri talablari (vazni) ga javob bermaydigan to'rt misralik barcha she'riy asarlarni to'rtlik (qorishiq) janri deb yuritish asoslidir. To'rtliklarning mavzu va mundarijasi hayotning barcha jihatlarini qamrab oladi, ularda bu jihatlar siqiy tarzda poetiklashadi" [Umurov, 2004:229-230]. Bundan to'rtliklar ruboiy singari hazaj bahrining ahrab va ahrab shajaralarida, tuyuqning ramali musaddasi maqsur (mahzuf) vaznlaridan tashqari istalgan vaznda yozilishi mumkin, degan xulosaga kelib chiqadi. XX-XXI asrda yaratilgan to'rtliklar, asosan barmoq vaznida yozilgan. Mumtoz she'riyatda aruz vaznida bitiladigan musammat va uning murabba, muxammas, musaddas... singari shakllari mavjudligini nazarda tutadigan bo'lsak, to'rtlik, jumladan, sakkizlikni ham barmoq vaznining she'riy shakllari deb qarash maqsadga muvofiqdir.

Olimning shu kitobida yana shunday asosli fikrlar keltiriladi: "Mazkur "qorishiq janr"ning Jamol Kamol aytganidek, asosiy belgilari bor. Bular: a) lirik ifodaning erkin parvozi; b) kechinmalar doirasiga tushgan eng uvoq mayda-chuydalarning ham shu ondayoq qayd etilishi; d) bevosita nutq-monolog bilan chuqur suvrat-

tasvirlarning almashinib turishi; e) vazn va mulohazalarning erkin qo'llanishi kabi xususiyatlardir" [Umurov, 2004:229-230]. Albatta, lirik ifodaning erkin parvozi deganda, erkinlik so'zini istalgan kenglikda bayon qilish, deb tushunmaslik kerak. Bu ko'ngilda chuqur ildiz otgan, uni larzaga solgan hislarning quyulib kelishi, erkin, quyma satrlar ila qog'ozga ko'chishidir. Shu ma'noda Samandar Vohidov to'rtliklari eng ichki, murakkab tuyg'ularni o'zida aks ettirgani bilan ahamiyatlidir. Bunday kichik hajmli she'riy shakllarga qo'yiladigan talab haqida Asqad Muxtor shunday deydi: "Poeziyaning bu turida ishlashning o'z qiyinchiliklari bor. Unda shoirni har qadamda didaktikaga, nasihatgo'ylikka berilib ketish xavfi poylab turadi" [Yo'ldosh, 1979:3]. Shunday holat S.Vohidovda ham uchraydi:

*Qinning chiroyiga bo'lma mahliyo,
Naqsh-u bezaklari bo'lsa ham tillo.
Qin aro qon qo'msab, tamshangan qilich –
Go'zallik boshiga bitgan bir balo.* [Vohidov, 2013:27]

To'plamning dastlabki turkum to'rtliklari pand-nasihat ruhida yozilgan bo'lsa-da, ularning "Otamning o'gitlari" deya nomlanishi muallifni nasihatgo'ylikda ayblashdan bizni to'xtatadi. To'rtliklar yoshi ulug' insonning o'gitlari ekanligi ularni odob bilan tinglashga undaydi. Otaning o'g'il tarbiyasidagi, uni hayot to'siqlaridan ogoh etuvchi o'gitlari turli obrazlar, sifatlashlar, tashbehlar asosida ifodalangan. Ularni o'qir ekansiz, halollik, hasaddan yiroq bo'lish, kamtarinlik, qanoat, so'z qadriga yetish, Yaratgandan baxsh etgan iste'dodni ezgulik sari yo'llash kabi nasihatlarni otasidan tinglayotgan o'g'il qiyofasi ko'z oldingizda gavdalanadi: "*Boshingni osmonda ko'rganing yo'q-ku, Quyoshga yonma-yon turganing yo'q-ku. Boshqalar xirmonin xasga yo'yaysan, Hali o'z ekaning o'rganing yo'q-ku*" [Vohidov, 2013:9]. Bu purma'no to'rtlik o'quvchini befarq qoldirmaydi, go'yoki uni ogohlantirganday, insoniylik rutbasidan chiqib ketmaslikka undaganday taassurot qoldiradi. Shoir kibr-u havoga berilmaslik, takabburlik illatiga yengilmaslik haqidagi fikrlarini shunchaki aytib qo'ya qolmaydi, balki, ularni poetik tasvirlarda ifoda etadi. To'rtlikda bugunning ruhi, bugungi kun odamlarining ruhiyati aks etganday. Inson qanday mavqega erishmasin, to'rtlikning dastlabki misralarida sanalgan

darajaga yetolmaydi. "Shunday ekan, manmanlik nechun, Kibr-u havo nimaga kerak?" To'rtlik shoir Erkin Vohidovning "Kamtarlik" she'ri bilan mazmuniy birlik hosil kiladi. Sakkiz misradan iborat "Kamtarlik" she'ri xulosaning ochiq bayon qilinganligi bilan turtlikdan farqlanadi. To'rtlikda esa hajm borasidagi imkoniyat cheklanganligi bois, yakuniy xulosa o'quvchi ixtiyoriga havola etiladi. Ayni mana shu jarayon shoirdan yuksak mahorat talab qiladi. Yuqoridagi to'rtlik esa S.Vohidovning o'z g'oyaviy niyatini o'kuvchiga to'g'ri yetkazib berishdagi mahoratini kursatib turibdi.

Shoir to'rtliklarining qofiyasida omonim so'zlarni ham mahorat bilan qo'llab, tajnisli qofiya yarata olgan. Bundan to'rtliklar ham tuyuq janri singari tajnisli bo'la olishi mumkinligi anglashiladi.

Asling tillo emas, tuproqdan bino, (yaratilgan)

Kekkayib, o'zingga qo'ymagin bino. (kekkayma)

Xoksorlik ko'ratgay insonni ko'kka,

Yerdan yuksalgaydir ko'k o'par bino. (imorat)

[Vohidov, 2013:11]

To'plamning ikkinchi qismi "Dunyo darsxonadir" deb nomlanib, ota saboqlarini olib ulg'aygan o'g'ilning katta hayotdan chiqargan asosli xulosalari kitobxonni-da ogohlikka chorlaydi. Turkum to'rtliklarning ayni qismida muallifning (lirik qahramonning) olam va odam, tiriklik va abadiyat, imon va adolat haqidagi fikrlari; poklik, halollik, xiyonat, takabburlik, yaxshilik va yomonlik, nohaqlik, xudbinlik, umrning mazmuni... haqidagi o'y-xulosalari bilan dillashadi kishi. "Otam o'gitlari" turkum to'rtliklarida vazminlik, donishmandlikka monand bir ohang hukmronlik qilsa, bu qismda shoirning hayot haqidagi dadil va keskin mulohazalarini o'qiymiz.. Va bular o'zi ta'kidlaganidek, "Neki o'qib, uqdim bu darsxonada, Baytlarim shu saboq takrori xolos". Zamin zorlanadi goh zaminlikdan, Oyoq o'sti bo'lgach kamtarinlikdan. Osmon orlanadi osmonlikdan goh – Beor bulutdagi bet qalinlikdan. [Vohidov, 2013: 29] Shoir ezgu fazilatlarining qadsiz ekanligidan (bo'lib borayotganligidan) ozorlanadi. Olamning eng ikki buyuk qismi – Yer va Osmon ham bundan aziyat chekmoqda. Muallif badiiy maqsadiga ko'ra yuzaga kelgan har bir misradagi tuyg'uga mos so'zlar va tovushlar (z, o, b) takrori esa she'rning o'ziga xos ohangini, emotsionallik darajasini oshirishga

xizmat qilgan. Alliteratsiya (tavze') badiiy san'ati so'z ruhiyatini uning qudratini his qila olgan ijodkorlar ijodidagina uchraydi. Tovushlar sehriga hislarning ergashishi yoki, aksincha, hissiyotlar tovushlarni o'ziga jamlab so'zlarda aks etishi shoirning badiiyat olami darajasini ko'rsatadi. Bu jihatni Samandar Vohidovning, asosan, to'rtliklarida ko'plab uchratamiz. Bu ham bo'lsa, to'rtlik she'riy shakli uchun ayni muddaodir. Chunki qalbga bir lahzaning o'zidayoq chuqur kirib bora olgan sezimlar mana shunday tovushlar hamohangligida o'zining munosib ifodasini topadi. Dunyoning achchiq-chuchugini tatigan lirik qahramonning, nihoyat, qanday ruhiy darajaga yetishganligi quyidagi to'rtligidan anglashiladi. *"Sipolar nazdida bizlar sayoqmiz, Kiborlar nazadida egri tayoqmiz. O'ziga xos erur bizning saltanat, Boshiga toj kiygan yalangoyoqmiz"*. Undagi ruhiyat manzaralari tobora kulminatsion cho'qqiga tomon ko'tarila borgan. *"Darsxona dunyo-ya, darsxona dunyo, To'rt kunga berilgan qarz xona – dunyo. Ijara haqiga umrdan bo'lak To'lov tilamassan, dardxona dunyo"*, degan dardli xitoblar bilan yakunlangan bu qism "Sabrim kosasiga sig'magan dardlar" nomli turkum to'rtliklar bilan davom ettiriladi. Dastlabki to'rtliklar turkumidan farqli ravishda bu qism "Onam xotirasiga" va "O'g'lim Jamshid xotirasi" nomli ikki qismdan iborat. Farzandlar g'amida hayot bozorida rohatini sotgan onaizor diydorining sog'inchi shoir misralarini dard-u hasrat bilan to'ldirib yuborgan.

"Voy dunyo-ya, voy dunyo-ya, voy dunyo,

Baxtdan ko'ra baxtsizlikka boy dunyo.

Nahot, ona sig'mas shu keng bag'ringga

Yer ostidan berasan-a joy, dunyo". [Vohidov, 2013:80]

Hayotning ne-ne sinovlariga dosh bergan, ne-ne xiyonatlarni yengib o'ta olgan insonning ayriliq azobidan najotsiz o'rtanishlari aks etgan bu to'rtliklar o'zining dard to'la xonishlari bilan o'quvchini kuchli iztirobga soladi.

"Adabiyotshunoslik lug'ati"da "Kompozitsiya (lot. komposition- tuzish, biriktirish) – badiiy asar qismlarini yaxlit badiiy niyat (muayyan konsepsiyani shakllantirish va ifodalash, ko'zlangan g'oyaviy-estetik ta'sir) ijrosi uchun eng optimal holda joylashtirish, badiiy sistema (asar)dagi unsurlarni o'zaro aloqa va munosabatlari ravshan anglashiladigan tarzda butunlikka biriktirish",– deya

izohlanadi. To'plamdagi to'rtliklar ham mazmun jihatidan shunday uyushtirilganki, unda dastlab dunyo ishlariga hayronalik, ko'ngil istaklariga quloq tutish va ba'zan bundan pushaymonlik, o'z hayotiy pozitsiyasiga ega bo'lishga harakat; keyinchalik bo'lsa, yoshlik va keksalik muqoyasasidagi baytlar, rahbarlik, shoirlik haqidagi hayotiy kechinmalar, Yaratganning borligini ta'kidlash mazmunidagi to'rtliklar uning butun strukturasi qamrab olgan.

Takaburning yuzi yo'q, qosh-qabog'i bor, 7 + 5=12

Tarashadan tarashlangan siyog'i bor. 8 + 4=12

Qoqilsang tutmoqqa qo'llari yo'g'-u, 6 + 5=11

Toptab tashlamoqqa to'rt tuyog'i bor. 6 + 5=11

[Vohidov, 2013:39]

Shoirning ayrim to'rtliklarida yuqoridagidek, turlicha turoqlanishlarni ham uchratish mumkin. Bunday holat muallif hissiyotlaridan yiroq bo'lgan she'rxonga to'rtlikning nimasidir she'rga o'xshamay turgandek tuyulaveradi. Biroq muallif kayfiyati va she'rning kesatiq ohangida (mazmunida) yozilganligini inobatga olsak, bunday saktaliklar ko'z yumishga arziydi. Samandar Vohidov to'rtliklarining o'ziga xos jihatlaridan yana biri, ularning ko'pchiligida dastlabki ikki misraning tarse' san'ati asosida yuzaga kelganligidir.

"Yorga dil berdim-u, dil olomadim,

Yovga qo'l berdim-u, el bo'lolmadim".

"Gul berganing gulingga xushtor bo'lsa,

Dil berganing dilingga dildor bo'lsa".

"Uchqur hayratlarim parvozdan toldi,

Yovqur jur'atlarim e'zozdan qoldi".

Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin. Bu shoirning fikrlariga, voqealarga tartib berayotganligini, kengroq mushohadaga kirishganligini ko'rsatadi. Ularning turli mavzularda ekanligi to'rtlik she'riy shakliga xos xususiyat bo'lsa, bir umumiy nom ostida birlashtirilib, yaxlit kompozitsion bir butunlik hosil qilganligi turkumlilik tushunchasiga mos keladi. "Dunyo darsxonadir" turkum to'rtliklarida muallif hayot yo'lining va ko'ngil kechinmalarining kompozitsion qurilishda aks etganligi ko'zga tashlanadi.

Samandar Vohidov to'rtliklari, asosan, o'n bir bo'g'inli barmoq vaznida yozilgan. Ammo o'n besh bo'g'inlilarini ham

uchratish mumkin. Jumladan, shoirning o'g'liga bag'ishlangan o'n to'rtta to'rtligining yettitasi o'n bir bo'g'inli bo'lsa, yettitasi o'n besh bo'g'inli misralardan iborat. Bunday to'rtliklar muallif (lirik qahramon)ning hasratlari yana-da oshganligini, hijron dardining ko'kka o'rlab borayotganligini aniq namoyon qilgan:

O'z davridayoq "Uning she'rlari qisqa hajmligi, poetik obrazlarning konkretligi, fikr va hissiyotlarning qorishqligi bilan darhol ko'zga tashlanadi" [Buxoro haqiqati, 1967], deya munosib baholangan edi.

Turkumlilik tushunchasi yoritilgan ilmiy adabiyotlarga tayanadigan bo'lsak, ularda turkum she'rlarning mavzu doirasiga ko'ra 1) ijtimoiy-siyosiy; 2) yumoristik mavzudagi; 3) lirik yo'nalishdagi; 4) hajviy-tanqidiy mavzudagi poetik turkumlarga ajratish mumkin. Samandar Vohidovning turkum to'rtliklari misolida esa, biz 5) ahloqiy- (tarbiyaviy) ma'naviy; 6) marsiya yo'nalishidagi turkum she'rlarga ham uchratamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Vohidov S. Dunyo darsxonadir (to'rtliklar). – T.: "Navro'z" nashr. 2013. – B. 88.
2. Yo'ldosh T. Oshiq ko'ngil: She'rlar. Kirish so'zi. Asqad Muxtor. – T.: "Adabiyot va san'at" nashr. – 1979.
3. Квятковский А. Поэтический словарь. – М.: Советская энциклопедия, 1966. – С. 338.
5. Umurov H. Badiiy ijod asoslari. T.: "O'zbekiston" nashr. 2001. B-120
6. Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – T.: A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashr. – 2004.
7. Hotamov N., Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati. - Toshkent: O'qituvchi. 1983. B-3